




# Mening birinchi rasmli Qur'onim



# MENING BIRINCHI RASMLI QUR'ONIM

*Amma porasi*




Ushbu asar ingliz tilidan o'zbek tiliga Nuur tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.

**NUUR**

TARJIMONLAR  
GURUHI

# Mening birinchi rasmli Qur'anim



بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

Bismillahir rohmanir rohim!

# MUNDARIJA

سورة الناس  
INSONIYAT

6

سورة الكوثر  
MO'L-KO'LLIK

12

سورة الفلق  
TONG OTISHI

7

سورة الماعون  
YORDAM

13

سورة الإخلاص  
POKLANISH

8

سورة قريش  
QURAYSH QABILASI

14

سورة المسد  
ARQON

9

سورة الفيل  
FIL VOQEASI

16

سورة النصر  
G'ALABA

10

سورة الهمزة  
MASXARA QILUVCHI

18

سورة الكافرون  
KOFIRLAR

11

سورة العصر  
VAQT

19

سورة التكاثر  
MUSCUBAGA

20

سورة التين  
ANJIR

34

سورة القارعة  
SHIDDAT BILAN  
ZARBA BERUVCHI

22

سورة الشرح  
TINCHLANTIRUVCHI

36

سورة العاديات  
POYGACHILAR

24

سورة الضحى  
TONG YORUG'LIGI

38

سورة الزلزلة  
ZILZILA

26

سورة الليل  
TUN

40

سورة البينة  
BAYON QILUVCHI

28

سورة الشمس  
QUYOSH

44

سورة القدر  
QADR KECHASI

30

سورة البلد  
O'LKA

46

سورة العلق  
LAXTA QON

31

# سورة الناس INSONIYAT

Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam Islom dinini davat qila boshlaganlarida, odamlarga yoqmay, u zotga zarar yetkazmoqchi bo'ldilar. Hatto Labid ibn Asam ismli bir kishi u zotni kasal qilish uchun seyr ishlatdi. Shunda Alloh har qanday yomonlikdan Allohdan panoh so'rash uchun Payg'ambarimiz alayhi salom uchun "Nas" va "Falaq" suralarini yubordi. Biz bu suralarni o'zimizni yomonliklardan himoya qilish uchun ham o'qishimiz mumkin.

١ قُلْ أَعُوذُ بِرَبِّ النَّاسِ

٢ مَلِكِ النَّاسِ

٣ إِلَهِ النَّاسِ

١ مِنْ شَرِّ الْوَسْوَاسِ الْخَنَّاسِ

٢ الَّذِي يُوسْوِسُ فِي صُدُورِ النَّاسِ

١ مِنْ الْجِنَّةِ وَالنَّاسِ

«Odamlar Robbisidan, odamlar podshohidan, odamlar Ilohidan panoh so'rayman! Berkinib, ko'rinib turuvchi vasvasachining, odamlar qalbiga vasvasa soladiganning, jinlar va odamlardan bo'lganning yomonligidan» deb ayt.

# سورة الفلق TONG OTISHI

① قُلْ أَعُوذُ بِرَبِّ الْفَلَقِ

② مِنْ شَرِّ مَا خَلَقَ

③ وَمِنْ شَرِّ غَاسِقٍ إِذَا وَقَبَ

④ وَمِنْ شَرِّ النَّفَّاثَاتِ فِي الْعُقَدِ

Ahmadda ber hamma  
narsa menda ham bo'lsa  
edi!

"Tong Robbisidan panoh so'rayman. U yaratgan narsalar yomonligidan. Va kirib kelgan qorong'u kechani yomonligidan. Va tugunlarga dam soluvchilarning yomonligidan. Va hasad qilgan hasadchining yomonligidan" deb ayt.

⑤ وَمِنْ شَرِّ حَاسِدٍ إِذَا حَسَدَ

# سورة الإخلاص

## POKLANISH

Payg'ambarimiz solallohu alayhi vasallam zamonida odamlar turli narsalarga sig'inardi. Ba'zi odamlar olovga sig'inar, boshqalari esa o'z xudolarini o'z qo'llari bilan yaratardi. Yog'och, tosh, xurmo va hatto oltindan ham xudolar yasardi. Ba'zan ular bir nechta xudolarga sig'inar va o'z xudolarining sherigi yoki o'g'li bo'lgan deyishardi. Bu odamlar Alloh haqida eshitgach, U haqida ko'proq bilishni xohlashdi va payg'ambar alayhisalomdan "Alloh kim? Uning oilasi bormi?" deb so'rashdi. Shunda Alloh taolo payg'ambarimiz Muhammad solallohu alayhi vasallamga odamlarga javob berishi uchun ushbu surani nozil qildi.

Uning oilasi bormi?

① قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ

U qanday yaralgan?

② اللَّهُ الصَّمَدُ

Kim U?

Uning oilasi bormi?

Kim U?

③ لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ

U qanday yaralgan?

④ وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ

Ayt: "U Alloh yagonadir.  
Alloh - Somaddir.  
U tug'magan va tug'ilmagan.  
Va unga hech kim teng bo'lmagan".



# سورة المسد ARQON

Payg'ambarimiz Muhammad sollalohu alayhi vasalamning Abu Lahab ismli yovuz amakisi va yovuz xolasi bor bo'lib, ular juda boy va farzandlari ko'p edi.

Xolasi ko'p o'tin terib, Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vasalamning yo'liga tashlardi. Bir kuni U zot tog' tepasiga chiqib, Quraysh ahliga Alloh taolo uni katta azobdan qutqarish uchun yuborganini aytadi.

Abu Lahab o'rnidan turib, qo'llarining changini artib: "Bizni buning uchun yig'dingmi? Halok bo'lgur!" deb baqiradi. Shunda Alloh taolo ushbu surani nozil qilgan:



١ تَبَّتْ يَدَا أَبِي لَهَبٍ وَتَبَّ

٢ مَا أَغْنَىٰ عَنْهُ مَالُهُ وَمَا كَسَبَ

QURAYSH



٣ سَيَصْلَىٰ نَارًا ذَاتَ لَهَبٍ

٤ وَامْرَأَتُهُ حَمَّالَةَ الْحَطَبِ

٥ فِي جِيدِهَا حَبْلٌ مِّن مَّسَدٍ

Abu Lahabning ikki qo'li halok bo'lsin, halok!  
Unga moli va kasb qilgan narsalari foyda bermaydi.  
U tezda cho'gi qizib turgan o'tga kiradi.  
Va uning o'tin ko'targan xotini ham.  
Uning bo'ynida eshilgan arqon bilan.

# سورة النصر

## G'ALABA

Bu alomatlar sodir bo'lishi  
Payg'ambarimiz solallohu alayhi  
vasallamning yaqinlashib kelayotgan  
vafotidan dalolat edi.



❶ إِذَا جَاءَ نَصْرُ اللَّهِ وَالْفَتْحُ

❷ وَرَأَيْتَ النَّاسَ يَدْخُلُونَ فِي دِينِ اللَّهِ أَفْوَاجًا

ALHAMDULILLAH

ASTAGHFIRULLAH

SUBHANALLAH

❸ فَسَبِّحْ بِحَمْدِ رَبِّكَ وَاسْتَغْفِرْهُ إِنَّهُ كَانَ تَوَّابًا

Vaqtiki, Allohning nusrati va fathi kelsa...

Va odamlarning Allohning diniga to'p-to'p bo'lib kirayotganligini ko'rsang... Bas, Robbingni poklab yod et va Unga istig'for ayt. Albatta, U tavbalarni ko'plab qabul qilguvchidir.

# سورة الكافرون KOFIRLAR

Musulmon bo'lmagan Qurayshiklar Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vasallamga navbatma-navbat turli xudolarga sig'inishni taklif qilishdi. Agar siz bizning butlarimizga bir yil sig'insangiz, biz bir yil Allohga ibodat qilamiz, deyishdi. Shu sababli Alloh taolo payg'ambarga ularga qanday javob berishni aytib, ushbu surani nozil qildi.

① قُلْ يَا أَيُّهَا الْكَافِرُونَ  
② لَا أَعْبُدُ مَا تَعْبُدُونَ

③ وَلَا أَنْتُمْ عَابِدُونَ مَا أَعْبُدُ

④ وَلَا أَنَا عَابِدٌ مَا عَبَدْتُمْ

⑤ وَلَا أَنْتُمْ عَابِدُونَ مَا أَعْبُدُ

⑥ لَكُمْ دِينُكُمْ وَلِيَ دِينِ

Ayt: «Ey, kofirlar... Men siz ibodat qilgan narsalarga ibodat qilmasman. Va sizlar ham men ibodat qiladigan narsaga ibodat qiluvchimasiz. Va men siz ibodat qilgan narsaga ibodat qiluvchimasman. Va siz ham men ibodat qiladigan narsaga ibodat qiluvchimasiz. Sizga o'z diningiz, Menga o'z dinim.

# سورة الكوثر MC'L-KO'LLIK

Payg'ambarimiz solallohu alayhi vasallamning o'g'li vafot etganida odamlar: "Uni tinch qo'yinglar, uning o'g'li yo'q, o'lsa, unutiladi", deyishgan. Alloh Payg'ambarimiz(s.a.v)ga uning dushmani unutilib ketadigan kishi ekanligini aytdi. Va Alloh taolo Payg'ambarimizga (s.a.v.) jannatda Kavсар degan daryoni va'da qildi. U mushk hidli, asaldan shirin, sutdan oppoq, qirg'oqlarida esa marvaridlardan yasalgan chodirlari bor bo'ladi.

① إِنَّا أَعْطَيْنَاكَ الْكَوْثَرَ

② فَصَلِّ لِرَبِّكَ وَأَنْحَرْ

③ إِنَّ شَانِئَكَ هُوَ الْأَبْتَرُ

Undan voz  
kechinglar, u  
unutilib ketadi.

ORQASI KESIK!

Albatta, biz senga Kavсарni berdik.  
Bas, Robingga namoz o'qi va jonliq so'y. Albatta,  
seni yomon ko'rib ayblovchining o'zining orqasi kesik.

# سورة الماعون YORDAM

Hisob-kiteb kuni  
so'ralamiz!

① أَرَأَيْتَ الَّذِي يُكَذِّبُ بِالدِّينِ

② فَذَلِكَ الَّذِي يَدْعُ الْيَتِيمَ



③ وَلَا يَخْضُ عَلَى طَعَامِ الْمِسْكِينِ

④ قَوْلٍ لِلْمُصَلِّينَ  
⑤ الَّذِينَ هُمْ عَنْ صَلَاتِهِمْ سَاهُونَ

الله اكبر الله اكبر

Vey, tirneqlarim  
oladigan bo'lib qolipti

Mayli, namozni  
keyinroq o'qirmiz

Qadamlar masjidga namoz o'qish  
uchun ketayotganimni  
ko'rishayotgandir - a!

⑥ الَّذِينَ هُمْ يُرَآؤْنَ

Kechirasiz, sadaqa  
qila olasizmi?

YO'G


Oxirat (jazosini) yolg'onga chiqaruvchini ko'rdingmi?  
U, yetimni qo'pollik bilan haydaydir.  
Va miskinlarga taom berishga qiziqitmaydir.  
Bir "namozxonlar"ga vayl bo'lsinki.  
Ular namozlarini unutuvchilardir.  
Undoq kishilar riyo qiladiganlardir.  
Va maa'uunni man qiladiganlardir.

⑦ وَيَمْتَعُونَ الْمَاعُونَ



# سورة قریش QURAYSH QABILASI

Quraysh ahli tijorat maqsadida sayohat qilar va safarga "karvon" nomli katta guruhlarda ketar edilar. Ular yozda Shomga, qishda esa Yamanga sayohat qilishar, keyin Makkaga eson-omon qaytardilar. Alloh taolo ularga ibodat qilib, shukr qilishlarini aytdi, chunki ularni ochlikdan to'ydirgan va safarlarida omon qo'ygan zot Uning O'zidir. Bu ne'matlar ularga Allohning Baytullohi va Uning bandalari bo'lganliklari uchun berildi.

① لإيلافِ قُرَيْشٍ



② إيلافِهِمْ رِحْلَةَ الشِّتَاءِ وَالصَّيْفِ



٣ فَلْيَعْبُدُوا رَبَّ هَذَا الْبَيْتِ

١ الَّذِي أَطْعَمَهُمْ مِنْ جُوعٍ وَأَمَّنَّهُمْ مِنْ خَوْفٍ

Qurayshning lozim tutishi uchun!  
Ularning qish va yoz safarlarini lozim tutishi uchun!  
Bas, ular mana shu Baytning Robbiga ibodat qilsinlar.  
U ularni ochlikdan to'q qilgan, xavfdan omon qilgandir.



# سورة الفيل FIL VOQEASI



Yamanni Abraha ismli bir kishi boshqargan. U Makka shahriga juda hasad qilardi, chunki dunyoning turli burchaklaridan juda ko'p odamlar Ka'bani ziyorat qilgani kelishardi. Bir kuni u Makkaga hujum qilish uchun juda katta va kuchli qo'shin tayyorladi. Hatto Ka'bani vayron qilish uchun o'zi bilan katta fillarni olib ketadi, lekin Alloh unga qarshi dengizdan qushlarni yuborgan. Har bir qushda ularni jazolash uchun uchtdan kichik tosh bo'lgan.

## YEMEN



۱ أَلَمْ تَرَ كَيْفَ فَعَلَ رَبُّكَ بِأَصْحَابِ الْفِيلِ



۲ أَلَمْ يَجْعَلْ كَيْدَهُمْ فِي تَضْلِيلٍ

Robbing fil sohiblarini nima qilganini bilmadingmi?

Ularning makru hiylasini zoye ketkazmadimi?

Va ularning ustiga to'p-to'p qushlarni yubormadimi?

Loydan pishirilgan toshlarni otadigan.

Bas, ularni qurt yeb tashlagan o'simlikka o'xshatib yubormadimi?





3 وَأَرْسَلَ عَلَيْهِمْ طَيْرًا أَبَابِيلَ



1 تَرْمِيهِمْ بِحِجَارَةٍ مِنْ سِجِّيلٍ



5 فَجَعَلَهُمْ كَعَصْفٍ مَأْكُولٍ



# سورة الهمزة MASXARA QILUVCHI

Namuncha burning  
katta bo'lmasa!

۱ وَيَلْ لِكُلِّ هُمَزَةٍ لُّمَزَةٌ

Anevining  
mashinasini qaranglar!

۲ الَّذِي جَمَعَ مَالًا وَعَدَّدَهُ

HA  
HA HA



Men bular bilan  
abadiy yashay olaman!

۳ يَخْسَبُ أَنَّ مَالَهُ أَخْلَدَهُ

۱ كَلَّا لَيُنْبَذَنَّ فِي الْحُطَمَةِ

۵ وَمَا أَذْرَاكَ مَا الْحُطَمَةُ

Har bir obru to'kuvchi va ayblovchiga "vayl" bo'lsin. U mol jamladi va uni sanab turur.

U, albatta, moli uni abadiy qoldirur deb hisob qilur.

Yo'q! Albatta, u "Hutoma"ga xor-zor etib tashlanur.

"Hutoma" qandoq narsa ekanini senga nima bildirur?

U, Allohning shiddatli, o'chmas olovidir.

Qalblargacha yetib boradigandir.

Albatta, u ularning ustidan

qoplangandir. Uzun-uzun

ustunlarga bog'langandir.

۶ نَارُ اللَّهِ الْمَوْقُودَةُ

۷ الَّتِي تَطَّلِعُ عَلَى الْأَفْنِدَةِ

۸ إِنَّهَا عَلَيْهِمْ مُّوَسَّدَةٌ

۹ فِي عَمَدٍ مُمَدَّدَةٍ

# سورة العصر VAQT

١ وَالْعَصْرِ

٢ إِنَّ الْإِنْسَانَ لَفِي خُسْرٍ

٣ إِلَّا الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ وَتَوَّصُوا بِالحَقِّ وَتَوَّصُوا بِالصَّبْرِ

Bilaman bu haqiqatda qiyin, Lekin insha'Allah Allahning ham beradigan ajr-u savoblari ke'p be'ladi!

لا إله إلا الله محمد رسول الله

Asr vaqti kirdi, namoz o'qishni unutmang!

Asr bilan qasam.

Albatta, inson xusrondadir.

Illo, imon keltirganlar va solih amallar qilganlar, bir-birlarini haq yo'lga chaqirganlar va bir-birlarini sabrga chaqirganlar (undoq emasdir).

# سورة التكاثر MUSCABA



١ أَلِهَاتِكُمُ التَّكَاثُرُ



٢ حَتَّىٰ زُرْتُمُ الْمَقَابِرَ

٣ كَلَّا سَوْفَ تَعْلَمُونَ



٤ ثُمَّ كَلَّا سَوْفَ تَعْلَمُونَ

Biz endi haqiqatni  
anglab yetdik!

٥ كَلَّا لَوْ تَعْلَمُونَ عِلْمَ الْيَقِينِ

٦ لَتَرَوُنَّ الْجَحِيمَ

٧ ثُمَّ لَتَرَوُنَّهَا عَيْنَ الْيَقِينِ

8 ثُمَّ لَتَسْأَلَنَّ يَوْمَئِذٍ عَنِ النَّعِيمِ

ISSIQ UY

SOG'LIK

SUV

OVQAT

GILA

Raqobat sizni chalg'itadi,  
To qabrlarni ziyorat qilguningizcha.  
Yo'q! Sizlar tezda bilib olasiz.  
Sizlar tezda bilasiz. Yo'q! Agar Siz aniq ilm ila bilganingizda  
edi. Albatta, jahannamni ko'rasiz.  
Va yana, albatta, uni ishonch ko'zi bilan ko'rasiz.  
So'ngra, o'sha kunda, albatta, berilgan ne'matlardan  
so'ralasiz.

# سورة القارعة

## SHIDDAT BILAN ZARBA BERUVCHI



1. Al - Qori'a
2. Al - Qori'a nima?
3. Al - Qori'a qandoq narsa ekanligini senga nima bildirdi?
4. U kunda odamlar to'zib ketgan kapalakka o'xshab qolarlar.
5. Va tog'lar titilgan junga o'xshab qolarlar.
6. Kimning tarozusi og'ir kelsa...
7. Bas, u rozilik hayotidadir.
8. Va ammo kimning tarozusi yengil kelsa...
9. Bas, uning uyi jahannamdir.
- 10-11. U (Haviya) qandoq narsa ekanligini senga nima bildirdi? U qattiq qizigan o'tdir.

١ يَوْمَ يَكُونُ النَّاسُ كَالْفَرَاشِ الْمَبْتُوثِ



٣ وَتَكُونُ الْجِبَالُ كَالْعِهْنِ الْمَنْفُوشِ



١ فَأَمَّا مَنْ ثَقَلَتْ مَوَازِينُهُ



١ فَهُوَ فِي عِيشَةٍ رَاضِيَةٍ



١ وَأَمَّا مَنْ خَفَّتْ مَوَازِينُهُ

١ فَأَمَّهُ هَاوِيَةٌ

١ وَمَا أَدْرَاكَ مَا هِيَ

١ نَارٌ حَامِيَةٌ

# سورة العاديات POYGACHILAR



① وَالْعَادِيَاتِ ضَبْحًا

② فَالْمُورِيَّاتِ قَدْخًا



③ فَالْمُغِيرَاتِ صُبْحًا



⑤ فَوَسَطْنَ بِهِ جَمْعًا



④ فَأَتَرْنَ بِهِ فَعْمًا

1. Harsillab chopuvchi otlar bilan qasam.
2. O't chaqnatib chopuvchi otlar bilan qasam.
3. Pastdan hujum qiluvchi.
4. O'sha chang bulutlarini qo'zg'atuvchi.
5. Va u ila jamoa o'rtasiga (yorib) kirdilar.



6 إِنَّ الْإِنْسَانَ لِرَبِّهِ لَكَنُودٌ

7 وَإِنَّهُ عَلَىٰ ذَٰلِكَ لَشَهِيدٌ



8 وَإِنَّهُ لِحُبِّ الْخَيْرِ لَشَدِيدٌ



9 أَفَلَا يَعْلَمُ إِذَا بُعِثَ مَا فِي الْقُبُورِ

10 وَحُصِّلَ مَا فِي الصُّدُورِ

Haqiqat



11 إِنَّ رَبَّهُم بِهِمْ يَوْمَئِذٍ لَّخَبِيرٌ

6. Albatta, inson Robbiga noshukrdir. 7. Va o'zlari bunga guvohdirlar.
8. Albatta, u mol-dunyoga haddan tashqari o'chdir.
9. Bilmaslarmi?! Qabrlar ochilganida.
10. Va ko'kraklaridagi oshkor bo'lganida.
11. O'sha kunda Robbilari ulardan xabardor ekanini?!

# سورة الزلزلة ZILZILA

١ إِذَا زُلْزِلَتِ الْأَرْضُ زِلْزَالَهَا

٢ وَأَخْرَجَتِ الْأَرْضُ أَثْقَالَهَا


٣ وَقَالَ الْإِنْسَانُ مَا لَهَا

1. Vaqtiki, yer qiyomat bo'lib titrab zilzilaga tushsa.
2. Va yer o'z yuklarini otib chiqarsa.
3. Va inson "Unga nima bo'ldi?", desa.
4. O'sha kunda yer o'z xabarini aytadi.
5. Chunki Robbingiz unga vahiy yuborgani uchun.
6. O'sha kunda odamlar o'z amallarini ko'rishlari uchun guruh-guruh bo'lib chiqadilar.
7. Bas, kim zarra og'irligida yaxshilik qilgan bo'lsa o'shani ko'radi.
8. Va kim zarra og'irligida yomonlik qilgan bo'lsa ham o'shani ko'radi.

١ يَوْمَئِذٍ تُحَدِّثُ أَخْبَارَهَا

٢ بِإِنَّ رَبَّكَ أَوْحَىٰ لَهَا

٣ يَوْمَئِذٍ يَصْدُرُ النَّاسُ أَشْتَاتًا لِيُرَوْا أَعْمَالَهُمْ



٧ فَمَنْ يَعْمَلْ مِثْقَالَ ذَرَّةٍ خَيْرًا يَرَهُ

٨ وَمَنْ يَعْمَلْ مِثْقَالَ ذَرَّةٍ شَرًّا يَرَهُ

# سورة البينة

## BAYON QILUVCHI



1 لم يكن الذين كفروا من أهل الكتاب والمشركين منفكين حتى تأتيهم البينة



2 رسول من الله يتلو صحفا مطهرة

3 فيها كتب قيمة



4 وما تفرق الذين أوتوا الكتاب إلا من بعد ما جاءتهم البينة



Ularning qalblari faqatgina  
Allohgagina bog'langan!



5 وما أمروا إلا ليعبدوا الله مخلصين له الدين خنفاء ويقيموا الصلاة ويؤتوا الزكاة وذلك بين القيمة

1. Ahli kitob va mushriklardan bo'lgan kufr keltiruvchilar bayon qiluvchi kelmagunicha ajralmasdilar.
2. Bayon qiluvchi Alloh tarafidan yuborgani Rasul bo'lib, poklangan sahifalarni tilovat qiladi.
3. Ularda ajoyib bitiklar bor.
4. Ahli kitoblar ularga bayon qiluvchi kelganidan so'ngina bo'linib ketishdi.
5. Holbuki, ular faqatgina yolg'iz Allohga ibodat qilishga, Uning dinigagina ixlos qilishga, boshqa dinlarga moyil bo'lmaslikka (ergashmaslikka), namozni to'liq o'qishga, zakot berishga buyurilgan edilar. Ana shu tog'ri (millat) ning dinidir.

٦ إِنَّ الَّذِينَ كَفَرُوا مِنْ أَهْلِ الْكِتَابِ وَالْمُشْرِكِينَ فِي نَارِ جَهَنَّمَ خَالِدِينَ فِيهَا أُولَئِكَ هُمْ شَرُّ الْبَرِيَّةِ

٧ إِنَّ الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ أُولَئِكَ هُمْ خَيْرُ الْبَرِيَّةِ

٨ جَزَاءُ هُمْ عِنْدَ رَبِّهِمْ جَنَّاتٌ عَدْنٍ تَجْرِي مِنْ تَحْتِهَا الْأَنْهَارُ خَالِدِينَ فِيهَا أَبَدًا رَضِيَ اللَّهُ عَنْهُمْ وَرَضُوا عَنْهُ ذَلِكَ لِمَنْ خَشِيَ رَبَّهُ



6. Albatta, ahli kitob va mushriklardan bo'lganlar jahannam olovidadirlar, u yerda abadiy qoladilar. Undaylar xaloyiqlarning eng yomonidirlar.

7. Albatta, iymon keltirganlar va solih amallarni qilganlar xaloyiqlarning eng yaxshisidirlar.

8. Ularning mukofotlari — Robbilari huzuridagi ostidan anhorlar oqib turgan "adn" jannatlaridir. U yerda abadul - abad qoladilar. Alloh ulardan rozi bo'ldi, ular ham Undan rozi bo'ldilar. Bu - Robbidan qo'rqqanlari uchun.

# سورة القدر

QADR KECHASI

1 إِنَّا أَنْزَلْنَاهُ فِي لَيْلَةِ الْقَدْرِ



2 وَمَا أَدْرَاكَ مَا لَيْلَةُ الْقَدْرِ

3 لَيْلَةُ الْقَدْرِ خَيْرٌ مِنْ أَلْفِ شَهْرٍ

4 تَنْزِيلُ الْمَلَائِكَةِ وَالرُّوحِ فِيهَا بِإِذْنِ رَبِّهِمْ مِنْ كُلِّ أَمْرٍ


5 سَلَامٌ هِيَ حَتَّىٰ مَطْلَعِ الْفَجْرِ

1. Albatta, Biz U(Qur'on)ni Qadr kechasi tushirdik.
2. Laylatul Qadr qandoq narsa ekanini senga nima bildirdi?
3. Laylatul Qadr ming oydin yaxshiroqdir.
4. Unda farishtalar va Ruh Robbilari izni bilan barcha ishlar uchun tushadir.
5. U to tong otguncha salom bo'lib turadir.

# سورة العلق LAXTA QON

Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vasallam Hiro g'orida ekanliklarida farishta Jabroil alayhissalom U zotning oldilariga keldi va "O'qi!", dedi. Shunda payg'ambarimiz sollalohu alayhi vasallam "Men o'qishni bilmayman", dedilar. Ushbu holat uch bora takrorlandi toki Jabroil alayhissalom quyidagi oyatlarni aytmagunicha:

❶ اِقْرَأْ بِاسْمِ رَبِّكَ الَّذِي خَلَقَ



❷ خَلَقَ الْإِنْسَانَ مِنْ عَلَقٍ


❸ اِقْرَأْ وَرَبُّكَ الْأَكْرَمُ



❹ الَّذِي عَلَّمَ بِالْقَلَمِ


❺ عَلَّمَ الْإِنْسَانَ مَا لَمْ يَعْلَمْ

1. Yaratgan Robbing nomi bilan o'qi.
2. U insonni laxta qondan yaratdi.
3. O'qi, albatta Robbing o'ta karamli Zot.
4. U qalam bilan ilmni o'rgatdi.
5. U insonga bilmaganlarini o'rgatdi.



❶ كَلَّا إِنَّ الْإِنْسَانَ لِرَبِّهِ لَكَنَّا


❷ أَنْ رَأَاهُ اسْتَكْبَرَ



6. Yo'q! Inson, albatta, tug'yonga ketur.

7. Gar o'zini boy ko'rsa.

8. Albatta, qaytib borish Robbingadir.



❸ إِنَّ إِلَىٰ رَبِّكَ الرُّجْعَىٰ



Rasulullohning amakilari Abu Jahl ularni Ka'bada ibodat qilishlarini to'xtatishga harakat qilgan. Alloh quyidagi oyatlarda uni shunday tasvirlaydi:

٩ أَرَأَيْتَ الَّذِي يَنْهَىٰ

١٠ عَبْدًا إِذَا صَلَّىٰ

١١ أَرَأَيْتَ إِنْ كَانَ عَلَىٰ الْهُدَىٰ

١٢ أَوْ أَمَرَ بِالتَّقْوَىٰ

١٣ أَرَأَيْتَ إِنْ كَذَّبَ وَتَوَلَّىٰ

١٤ أَلَمْ يَعْلَم بِأَنَّ اللَّهَ يَرَىٰ

١٥ كَلَّا لَئِنْ لَمْ يَنْتَهِ لَنَسْفَعًا بِالنَّاصِيَةِ

١٦ نَاصِيَةٍ كَاذِبَةٍ خَاطِئَةٍ

١٧ فَلْيَدْعُ نَادِيَهُ

١٨ سَتَدْعُ الزَّبَانِيَةَ

١٩ كَلَّا لَا تَطِغُ وَاسْجُدْ وَاقْتَرِبْ

AGAR MUHAMMAD BU  
YERGA NAMOZ  
O'QISHGA KELSA,  
O'ZIM UNI  
TO'XTATAMAN!



9. Qaytarganni ko'rdingmi?!
10. Bandani namoz o'qiyotganida?!
11. Ayting-chi, agar o'sha hidoyatda bo'lsa.
12. Yoki taqvoga chaqirsa.
13. Ayting-chi, agar u yolg'onga chiqarsa va yuz o'girsas.
14. Alloh uni ko'rib turishini bilmasmi?
15. Yo'q! Agar qaytmasa, peshonasidan shiddat-la tutamiz!
16. Yolg'onchi, xatkor peshonasidan!
17. Bas, u o'z to'pini chaqirsin.
18. Biz ham zaboniyalarni chaqirurmiz.
19. Yo'q! Sen unga itoat qilma! Sajda qil va qurbat hosil qil.

# سورة التين ANJIR




① وَالتَّيْنِ وَالزَّيْتُونِ

② وَطُورِ سَيْنِينَ



③ وَهَذَا الْبَلَدِ الْأَمِينِ



④ لَقَدْ خَلَقْنَا الْإِنْسَانَ فِي أَحْسَنِ تَقْوِيمٍ

1. Anjir va zaytun bilan qasam.  
2. Va Siyno tog'i bilan qasam. 3. Va mana bu omonlik yurti (Makka) bilan qasam. 4. Batahqiq, biz insonni eng yaxshi suratda yaratdik.



5 ثُمَّ رَدَدْنَاهُ أَسْفَلَ سَافِلِينَ



6 إِلَّا الَّذِينَ آمَنُوا وَعَمِلُوا الصَّالِحَاتِ فَلَهُمْ أَجْرٌ غَيْرُ مَمْنُونٍ



HISOB-KITOB KUNI

7 فَمَا يُكَذِّبُكَ بَعْدَ بِالذِّينِ


8 أَلَيْسَ اللَّهُ بِأَحْكَمَ الْحَاكِمِينَ



- 5. So'ngra uni asfala saafiliynga qaytardik.
- 6. Magar, imon keltirgan va solih amallar qilganlar uchun cheksiz ajr bordir.
- 7. Bas, seni oxiratni yolg'onga chiqarishga nima olib kelur?!
- 8. Alloh hukm qiluvchilarning eng donosi emasmi?!

# سورة الشرح TINCHLANTIRUVCHI

Bu surada Allohning Payg'ambarimiz sollalohu alayhi vasallamga ko'rsatgan yordami haqida so'z boradi. Biroq suratlar U zotga tegishli emas.



① أَلَمْ تَشْرَحْ لَكَ صَدْرَكَ



① وَوَضَعْنَا عَنْكَ وِزْرَكَ



① الَّذِي أَنْقَضَ ظَهْرَكَ



① وَرَفَعْنَا لَكَ ذِكْرَكَ

1. Sening ko'ksingni keng qilib qo'yamadikmi?
2. Va sening yukingni (gunohlar kechirilishi) yengillatmadikmi?
3. Yelkangni bosib turganni?
4. Va sening zikringni yuqori ko'tarmadikmi?

٥ فَإِنَّ مَعَ الْعُسْرِ يُسْرًا  
٦ إِنَّ مَعَ الْعُسْرِ يُسْرًا



٧ فَإِذَا فَرَغْتَ فَانصَبْ  
٨ وَإِلَىٰ رَبِّكَ فَارْغَبْ



5. Bas, albatta, qiyinchilik bilan osonchilik bordir.

6. Albatta, qiyinchilik bilan osonchilik bordir.

7. Forig' bo'lsang, ibodatga uringin.

8. Va faqat Robbingga rag'bat qilgin!

# سورة الضحى TONG YORUG'LIGI

① وَالضُّحَىٰ

② وَاللَّيْلِ إِذَا سَجَىٰ

③ مَا وَدَّعَكَ رَبُّكَ وَمَا قَلَىٰ

④ وَالْآخِرَةُ خَيْرٌ لَّكَ مِنَ الْأُولَىٰ  
⑤ وَسَوْفَ يُعْطِيكَ رَبُّكَ فَتَرْضَىٰ

⑥ أَلَمْ يَجِدْكَ يَتِيمًا فَآوَىٰ

1. Tong yorug'ligi bilan qasam.
2. Sukunatga cho'mgan tun bilan qasam. 3. Robbing seni tark qilgani yo'q, senga g'azab ham qilgani yo'q.
4. Va albatta, oxirat sen uchun bu dunyodan yaxshidir.
5. Va tezda Robbing senga ato qilur va sen rozi bo'lursan. 6. U seni yetim topib, joylab qo'ymadimi?

ABUTGLIS  
AMAKI

ABOULMUTTALIS  
BOBO

۱ وَوَجَدَكَ ضَالًّا فَهَدَىٰ



۲ وَوَجَدَكَ عَائِلًا فَأَغْنَىٰ

۳ فَأَمَّا الْيَتِيمَ فَلَا تَقْهَرْ



۴ وَأَمَّا السَّائِلَ فَلَا تَنْهَرْ



۵ وَأَمَّا بِنِعْمَةِ رَبِّكَ فَحَدِّثْ



7. Va u seni hayron holda topib, hidoyatga boshlamadimi? 8. Va u seni kambag'al holda topib, boy qilmadimi? 9. Ammo yetimga qahr qilmagin. 10. Ammo so'raganga qattqlik qilma. 11. Va ammo Robbingning bergan ne'mati haqida so'zla.

# سورة الليل TUN

① وَاللَّيْلِ إِذَا يَغْشَىٰ



② وَالنَّهَارِ إِذَا تَجَلَّىٰ



③ وَمَا خَلَقَ الذَّكَرَ وَالْأُنثَىٰ

1. Tunning qoplab kelayotgan payti bilan qasam.
2. Nahorning paydo bo'lish payti bilan qasam.
3. Erkak va ayolning yaralishi bilan qasam.





١ إِنَّ سَعْيَكُمْ لَشَتَّىٰ

INSHA'ALLAH  
GIYMATDA  
MUKGOTLANAMAN!

RAHMAT

٥ فَأَمَّا مَنْ أَعْطَىٰ وَاتَّقَىٰ  
٦ وَصَدَّقَ بِالْحُسْنَىٰ  
٧ فَسَنِيْرُهُ لِلْيُسْرَىٰ

YENGILLIK

KG'PRGQ YAXSHILIK QILISH UCHUN

HECH GANDAY  
GIYMAT KUNI YG'G

QIYINCHILIK

KG'PRGQ YAXSHILIK QILISH UCHUN

٨ وَأَمَّا مَنْ بَخِلَ وَاسْتَغْنَىٰ  
٩ وَكَذَّبَ بِالْحُسْنَىٰ  
١٠ فَسَنِيْرُهُ لِلْعُسْرَىٰ

4. Albatta, sizning ishlaringiz turlichadir.

5. Ammo kimki (ato) bersa va taqvo qilsa...

6. Va go'zalni tasdiq qilsa...(yaxshilikka ishonrsa)

7. Biz uni osonlik yo'liga to'g'rilab qo'yamiz.


8. Ammo kim baxil(ochko'z) bo'lsa va o'zini o'ziga yetarli deb

hisoblasa... 9. Va yaxshilikni inkor etsa...

10. Biz unga qiyinchilik yo'lini tekis qilib qo'yamiz!

11. U qulagan vaqtda unga mol-mulki foyda bermas.

١١ وَمَا يُغْنِي عَنْهُ مَالُهُ إِذَا تَرَدَّىٰ



12. إِنَّ عَلَيْنَا لَلْهُدَىٰ



BU DUNYO

13. وَإِن لَّنَا لَلْآخِرَةِ وَالْأُولَىٰ



OXIRAT



14. فَأَنْذَرْتُكُمْ نَارًا تَلَظَّىٰ

15. لَا يَصْلَاهَا إِلَّا الْأَشْقَىٰ

16. الَّذِي كَذَّبَ وَتَوَلَّىٰ

12. Hidoyatga boshlash Bizning zimmamizdadir.
13. Albatta, oxirat ham bu dunyo ham Biznikidir.
14. Bas, Men sizlarni lovullagan o'tdan ogohlantirdim.
15. Unga badbaxtdan boshqa kirmas.
16. U o'sha yolg'onga chiqargan va yuz o'girgandir.

۱۷ وَسَيَجْنِبُهَا الْأَتَقَى

۱۸ الَّذِي يُؤْتِي مَالَهُ يَتَزَكَّى

YOG,  
RAHMAT

۱۹ وَمَا لِأَخِي عِنْدَهُ مِنْ نِعْمَةٍ تُجْزَى

ALLGHNING O'ZI  
QABUL QILSIN

۲۰ إِلَّا ابْتِغَاءَ وَجْهِ رَبِّهِ الْأَعْلَى



۲۱ وَلَسَوْفَ يَرْضَى


17. Va albatta, taqvodor banda bundan chetda qoladi.

18. U, boyligini sarflaydir va o'zini poklaydir.

19. Biror kishining unda qaytarilishi lozim yaxshiligi yo'q edi.

20. Faqat, o'zining oliy maqom Robbining roziligini so'rab qiladir.

# سورة الشمس QUYOSH




7. وَنَفْسٍ وَمَا سَوَّاهَا (And a soul and what he has made straight).  
8. فَأَلْهَمَهَا فُجُورَهَا وَتَقْوَاهَا (So he inspired her with evil and piety).



TOWARDS MAKKAH

9. قَدْ أَفْلَحَ مَنْ زَكَّاهَا (Who has purified her has certainly succeeded).




JANJAL  
G'IRLIK  
GIMCR

10. وَقَدْ خَابَ مَنْ دَسَّاهَا (Who has corrupted her has certainly failed).

1. Quyosh bilan va uning ziyosi bilan qasam.
2. Uning ortidan kelgan oy bilan qasam.
3. Va u (quyosh)ni ravshan ko'rsatgan nahor bilan qasam.
4. Va u (quyosh)ni qoplagan tun bilan qasam.
5. Va osmon bilan va uning bino qilinishi bilan qasam.
6. Va yer bilan va uning to'shalishi bilan qasam.
7. Va nafs bilan va uning mukammal qilinishi bilan qasam.
8. Bas, unga fujurini va taqvosini bildirdi.
9. Batahqiq, kim u(nafs)ni poklasa, yutuqqa erishdi.
10. Va batahqiq, kim u(nafs)ni kirlasa, noumid bo'ldi.

Samud qavmi juda mag'rur qavm bo'lgan. Alloh ularga Solih payg'ambar va bir tuyani yuboradi. Tuya toshdan yaralgan bo'lib, juda katta edi. Mo'jizaning o'zginasi edi. Odamlarga navbatma-navbat bir kun tuyaga suvdan ichishga ruxsat berish, keyin esa bir kun suvdan o'zlari va chorvalari ichishiga, unga zarar yetkazmaslik kerakligi aytilgandi. Lekin ular tuyani o'ldirdilar va Alloh ularni jazoladi.



11 كَذَّبَتْ ثَمُودُ بِطَغْوَاهَا

KELINGLAR,  
TUYANI O'LDIRAMIZ!

ENG  
YGVUZ

12 إِذِ انْبَعَثَ أَشْقَاهَا

13 فَقَالَ لَهُمْ رَسُولُ اللَّهِ نَاقَةَ اللَّهِ وَسُقْيَاهَا

14 فَكَذَّبُوهُ فَعَقَرُوهَا فَدَمْدَمَ عَلَيْهِمْ رَبُّهُمْ بِذُنُوبِهِمْ فَسَوَّاهَا

15 وَلَا يَخَافُ عُقْبَاهَا

11. Samud qavmi o'z tug'yoni ila yolg'onga chiqardi.

12. Vaqtiki, uning eng badbaxti shoshilib turdi.

13. Bas, ularga Allohning Rasuli: "Allohning tuyasiga va uning suviga tegmanglar", dedi.

14. Bas, (uni) yolg'onchiga chiqarishdi va (tuyani) so'yishdi. Bas, Robblari ularni gunohlari sababli yo'q qilib yubordi va bunda barchani barobar qildi.

15. Va U zot bu(ish)ning oqibatidan qo'rqmas.

# سورة البلد O'LKA

1 لَا أَقْسِمُ بِهَذَا الْبَلَدِ

2 وَأَنْتَ جِلٌّ بِهَذَا الْبَلَدِ

3 وَوَالِدٍ وَمَا وَلَدٌ

HECH KIM MENING PULLARIMNI  
GLIB G'YOLMAYDI

4 لَقَدْ خَلَقْنَا الْإِنْسَانَ فِي كَبَدٍ

5 أَيَحْسَبُ أَنْ لَنْ يَقْدِرَ عَلَيْهِ أَحَدٌ

6 يَقُولُ أَهْلَكْتُ مَالًا لُبَدًا

7 أَيَحْسَبُ أَنْ لَمْ يَرَهُ أَحَدٌ

8 أَلَمْ نَجْعَلْ لَهُ عَيْنَيْنِ

9 وَلِسَانًا وَشَفَتَيْنِ

ALHAMDULILLAH,  
ALLOH SENG A KO'ZLARING,  
TIL VA LABLARINGNI BERISOI

10 وَهَدَيْنَاهُ النَّجْدَيْنِ

1. Mana shu shahar bilan qasam.
2. Sen muqim turgan bu shahar-la.
3. Va uning ota onalari va uning farzandlari bilan qasam.
4. Batahqiq, Biz insonni mashaqqatda yaratdik.
5. U inson unga hech kimning kuchi yetmas, deb hisoblarmi?
6. U, ko'plab mol - dunyo nafaqa qildim, deydi.
7. U o'zini birov ko'rmadi, deb hisoblaydimi?
8. Biz unga ikki ko'zni bermadikmi?
9. Va tilni va ikki labni bermadikmi?
10. Va Biz uni ikki yo'lga yo'llab qo'ymadikmi?

11. فَلَا اقْتَحَمَ الْعَقَبَةَ



12. وَمَا أَنْزَلْنَاكَ مَا الْعَقَبَةُ



13. فَكُ رَقَبَةً



14. أَوْ إِطْعَامٌ فِي يَوْمٍ ذِي مَسْغَبَةٍ



15. يَتِيمًا ذَا مَقْرَبَةٍ



16. أَوْ مِسْكِينًا ذَا مَتْرَبَةٍ



17. ثُمَّ كَانَ مِنَ الَّذِينَ آمَنُوا وَتَوَاصَوْا بِالصَّبْرِ وَتَوَاصَوْا بِالْمَرْحَمَةِ



18. أُولَئِكَ أَصْحَابُ الْمَيْمَنَةِ

19. وَالَّذِينَ كَفَرُوا بِآيَاتِنَا هُمْ أَصْحَابُ الْمَشْأَمَةِ

20. عَلَيْهِمْ نَارٌ مُؤَصَّدَةٌ



11. Bas, u dovon oshib(havoyi nafsiga og'ir keladigan ish) o'tmadi.

12. Dovon qandoq narsa ekanligini senga nima bildirdi? 13. U qul ozod qilishdir.

14. Yoki ocharchilik kunida taom berishdir.

15. Qarindosh yetimga.

16. Yoki tuproqqa qorilgan misinga.

17. So'ngra, imon keltirganlar va bir - birini sabrga, mehr - shafqatga chaqirganlar bo'lsa...

18. Ana o'shalar o'ng tomon egalariidir. 19. Oyatlarimizga kufr keltirganlar chap tomon egalariidir.

20. Ularni chiqib bo'lmaydigan o't-olov o'rab olgandir.

# NUUR

## TARJIMONLAR GURUHI

Qur'oni Karim oyatlari tarjimasi shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf rohimahulloh hazratlarining qalamlariga mansub "Tafsiri Hilol" asaridan foydalangan holda qilindi. Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga Nuur tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!





# Mening birinchi rasmi Qur'onim



Bolajonlarimiz Qur'ondagi suralarning mazmun va mohiyatini tushunmagan holda yod olishadi. Hattoki biz ota onalar ham undagi ma'nolarni tushuntirib berishga qiynalamiz.

Ushbu suratli kitobcha yordamida bolalaringiz o'tizinchi juz ya'ni Amma porasidagi oyatlarni tezlik bilan qiynalmasdan anglay oladilar, insha'Alloh. Ushbu suratli kitobcha farzandingizga oyatlarni tushunishlariga yordam beradi va hattoki undagi suratlar yordamida suraning tafsirini ham osonlik bilan anglashlari mumkin.

Bu qo'lingizdagi yorqin va ajoyib kitobcha farzandingizga suralarni yodlash davomida o'zgacha maroq va kayfiyat beradi.

**NUR**

TARJIMONLAR  
GURUHI